



SOXTA SALAFIYLIK DINMI YOKI XAVF ?

Abdulahatov Ilyosbek

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Islomshunoslik yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Islom dinining asosiy tamoyillari – tinchlik, bag'rikenglik va adolat masalalari Qur'on oyatlari hamda hadislar asosida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda "salafi solihlar" tushunchasining asl mazmuni ochib berilib, zamonaviy davrda yuzaga kelgan ayrim radikal oqimlarning diniy ta'limotga zid talqinlari tanqidiy yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, radikalizmning shakllanish omillari, uning siyosiylashuvi va moliyaviy manbalari xalqaro tadqiqotlar hamda manbalar asosida yoritiladi. Maqolada O'zbekistonning mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yondashuvlari ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari radikalizmga qarshi kurashishda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Islom, bag'rikenglik, salafi solihlar, soxta salafiylik, radikalizm, ekstremizm, takfir, FATF, geosiyosat, O'zbekiston.

KIRISH: ISLOM TINCHLIK VA OMONLIK DINIDIR

Islom salomatlik, tinchlik va omonlik dinidir. Islom dini avvalida ham zo'rlik kuch ishlatish begunoh odamlar qonini to'kish bilan tarqalmadi. Musulmonlar turli xil e'tiqod vakillari bilan murosada va tinch hayot kechirishgan. Musulmon olami g'ayri dinlarga ham bag'ri kenglik siyosatni yuritgan. Bu esa Islom dinining asl mohiyatini anglatadi, yani Islom hech bir davrda nohaq, begunoh insonlarni qonini to'kish prinsiplarini qo'llamagan va aksincha bu ishni qoralagan. Bunga misol Alloh ta'olo Mumtaha surasining 8-oyatida shunday marhamat qiladi.

“Alloh sizlarni diniy urush qilmagan va diyorlaringizdan quvib chiqarmaganlarga yaxshilik va adolat qilishdan qaytarmas. Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni yaxshi ko'radir”. Alloh ta'olo o'zining kitobida mo'min musulmonlarga qarata xitob qilyapti, sizga urush qilmagan, o'z diyorlaringizdan quvib chiqarmagan kishilarga adolatli bo'lishingizdan qaytarmaydi balki musulmonmi, g'ayridinmi barchaga adolatli bo'lganlarni sevadi deb ta'kidlab aytmoqda.

Yoki Anfol surasining 61-oyatida “Agar ular tinchlikka moyil bo'lsalar, sen ham moyil bo'l. Va Allohga tavakkul qil. Albatta, U eshitguchi va bilguchi Zotdir”. Diniy bag'rikenglik borasida Muhammad s.a.v. ning qilgan ishlari yuqoridagi fikrlarning isboti bo'la oladi. “Haybar g'azotida musulmonlarga o'lja tushgan narsalar ichida Tavrotndan bir qancha saxifalar ham bor edi.

Yaxudiyalar kelib, Rosululloh sollollohu alayhi vasallamdan o'sha saxifalarni qaytarib berishlarini talab qildilar. Payg'ambar sollollohu alayhi vasallam ularni yaxudiyalarga qaytarib berishga amr qildilar. Shunday qilib, yaxudiyalar uchun muqaddas hisoblanga saxifalarga zarracha ziyon yetkazilmay, o'zlariga qaytarildi. Bu Islomdagi diniy bag'rikenglikning yorqin dalilidir.



O'zlariga dushman bo'lib turganiga qaramay, boshqalarning qadryatlarini e'zozlash ulug' ish. Afsuski bu bag'rikenglikni boshqalar qila olmaydilar"²².

I. RADIKAL TOIFALAR VA "SOXTA SALAFIYLIK" MUAMMOSI

Ushbu oyatlar va islom tarixida bo'lib o'tgan muhim voqealar shuni ko'rsatadiki Islom ta'limoti musulmonlarga boshqa din va e'tiqod vakillariga adolatli va bag'rikenglik munosabatida bo'lishni o'rgatadi. Bugun Islom nomi ostida shakllangan yoki shakllantirilgan bazi bir radikal toifalar musulmonlar ta'limotlariga zid ravishda gunohsiz kishilar qonini to'kish musulmonlar birligiga putur yetkazish kabi katta gunoh ishlarni Allohning buyrug'i Payg'ambar alayhissalomning ko'rsatmasi deya amalga oshirishmoqda va solih salafarga ergashgan ekanlarini iddao qilib o'zlarini salafiylar deb atashmoqda. Va bugungi kunda mavjud bo'lgan mazhablarning birortasiga ergashmay o'zlari Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflardan ko'r-ko'rona hukum chiqarishlarini aytmoqdalar. "Asrlar davomida islom ulamolari tomonidan yozilgan asarlar va orttirilgan malaka, erishilgan yutuqlarni rad etib, faqatgina "salafi solihlar" davrini e'tiborga olish soxta salafiylarning tor mohiyatini namoyon etadi. Ular diniy, ma'naviy, ijtimoiy va siyosiy yo'nalishlarda islom dini paydo bo'lgan ilk zamonlarga qaytib, musulmonlarning e'tiqodi va dunyoqarashini hozirgacha turli sohalarda erishilgan natijalardan "poklash"ni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar"²³. Soxta salafiylar har qanday yangilikni bid'at deb hisoblaydilar, fiqhiy mazhablarni inkor qiladilar, tasavvufni tan olmaydilar, arzimas bahonalar bilan musulmonlarni kofirga chiqaradilar. Aslida solih salaf Muhammad alayhissalom va u kishidan keying ikki avlod tobe'inlar va tab'a tobe'inlardir. «خَيْرُ النَّاسِ الَّذِينَ قَالَ قَالَ اللهُ رَسُولُ قَالَ قَالَ اللهُ عَبْدٌ عَنْ» "شَهَادَتُهُمْ وَأَيْمَانُهُمْ، أَيْمَانُهُمْ شَهَادَتُهُمْ تَسْبِقُ قَوْمٌ يَجِيءُ ثُمَّ، يَلُونَهُمُ الَّذِينَ ثُمَّ، يَلُونَهُمُ الَّذِينَ ثُمَّ، قَرْنِي تَأْسِالَ" Abdulloh (ibn Mas'ud) roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Insonlarning eng yaxshisi mening davrimdagilardir (sahobalar). So'ngra ulardan keyin keladiganlar (tobe'inlar), so'ngra ulardan keyin keladiganlar (tab'a tobe'inlar). So'ngra shunday qavmlar keladiki, ularning guvohliklari qasamyodlaridan, qasamyodlari esa guvohliklaridan o'zib ketadi (ya'ni, din va omonatga yengil qaraydigan bo'lib ketishadi). "Islom ulamolari "Ahli sunna val-jamaa"ga mansub bo'lgan mashhur to'rt fiqhiy mazhab: hanafiy, molikiy, shofe'iy va hanbaliy mazhabi asoschilari va ularning as'hoblarini ayni yuqoridagi hadishda maqtalgan avlod vakillari deb hisoblaydilar. Hijriy IV asrdan keyingi davrlar vakillariga nisbatan "solih salaf" atamasini ishlatish noto'g'ri hisoblanadi. Shu sababli, islomning keyingi davrlarida shakllanib, bugungi davrga qadar faoliyat ko'rsatib kelayotgan salafiylik oqimining o'zlarini "salafiylar" deb atovchi vakillarini solih salaf bilan adashtirmaslik kerak. Muhammad (s.a.v.) zamoni va undan keyingi ikki asr ichida yashagan ulamolar "salafi solih" ("solih ajdodlar") hisoblangan. Ulardan keyingi davrda yashagan ulamolarga nisbatan "xalaf" so'zi ishlatilgan. Undan keyingi ulamolarga "mutaaxxirin" atamasi ishlatilib kelinadi"²⁴. Soxta salafiylikning kelib chiqish tarixiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa quydagilarni ko'rish mumkin. Payg'ambar alayhissalomning

²² Hadis va hayot 19-juz, Olamlarga raxmat Payg'ambar / Shayx M. Muhammad Yusuf – Toshkent.: "hilol nashr", 2022. – B. 369

²³ Ilmdan boshqa najot yo'q / A. Abdullayev, N. Hakimov, Sh Jo'rayev, J Karimov – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 10

²⁴ Dini-ma'rifiy va ijtimoiy-ma'naviy soha targ'ibotchilari uchun ayrim atama va tushunchalarning izohli lug'ati/ O'. Hasanbayev. – Toshkent : "Shamsuddinxon Boboxonov" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – B. 421



vafotlaridan keyin Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqqan musulmonlar qo'shini juda katta hududlarni fath etdi va va ulkam islom davlatiga asos solishdi. Yangi ochilgan yerlardagi islomni yangin qabul qilgan e'tiqod vakillari yoki islomni tanqid qilish maqsadida uni o'rganadigan odamlar soni ko'paydi. Ularga qarshi mafkuraviy kurashda o'zlarining uslublarida raddiyalar beradigan Jahmiya va Mo'tazila kabi oqimlar chiqdi. Ya'ni ular, qarshi tarafga o'zlari tan oladigan aqliy falsafiy yo'l bilan raddiyalar bera boshladi. "Bu davrda yana o'zlarini "As'hobul hadis" deb nomlagan toifalar chiqdi ular sahobalar tobe'inlar e'tibor bermagn masalalarda ustida tortishishni va ular (mo'tazila va Jahmiyalar) tortishayotib qo'llagan uslublarni bid'at hisoblashgan va bunga raddiyalar yozishgan...

II. SALAFIYLIKNING SHAKLLANISH TARIXI VA SIYOSIYLASHTIRILISHI

Salafiylikning bugungi ko'rinishdagi oqimga aylanishi keyingi davrlarda, xususan Ibn Taymiya davrida amalga oshgan²⁵. Ibn Taymiyani fikricha vaqtlar o'tishi bilan islomga turli bid'atlar kirib qolgan. Shuning uchun jamiyat va musulmonlarning kundalik turmush tarzi uning talqinidagi Qur'on va sunnatga asoslangan qat'iy tartib qoidaga solinishi zarurligini haqidagi g'oyani ilgari surgan. Uning davlatni shariat qonun qoidalari asosida boshqarmagan hukumdorga qarshi jihod e'lon qilish mumkinligi to'g'risidagi fatvolari keyinchalik islomni niqob qilib olgan radikal toifalarning siyosiy g'oyalari shakllanishiga zami yaratib berdi. Ibn Taymiyaning Payg'ambar alayhissalom, sahobalar va avliyolarning qabrini ziyorat qilishda hamda tavhid, Allohning makoni, takfir va boshqa aqidaviy masalalarda ahli sunna val jamoaning Ash'ariylik va Moturidiylik ta'limotlariga zid o'sha davrdagi ulamolarning Keskin noroziligiga uchrab ko'plab raddiyalar yozildi. Va keyinchalik bu qarashlar baribir turli mutassib guruh va oqimlar yetakchilarining mafkurasiga asos bo'ldi. Jumladan "Soxta salafiylik g'oyalari XIX asrning ikkinchi yarmidan o'z oldiga xalifalikga asoslangan islom davlatini barpo etish vazifasini qo'ygan "islohotchilik", "panislomizm" niqobi ostida yangidan jonlandi. "Islohotchi salafiy"lar nomini olgan bunday mafkura targ'ibotchilari hisoblangan Jamoliddin Afg'oniy (1839–1897), Muhammad Abduh (1849–1905) va Abdurahmon Kavakibiy (1854–1902)lar tomonidan "musulmon xalqlarining diniy-siyosiy ittifoqi" g'oyasi ishlab chiqildi. Ular bu g'oya ostida an'anaviy mazhablardan voz kechish va islomning ilk davriga qaytishga da'vat qildilar. Ibn Taymiya va uning izdoshlari aqida va ibodat masalalariga ko'proq e'tibor qaratishgan bo'lsa, soxta salafiylikning undan keyingi izdoshlari siyosiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini bayroq qilib ko'tardilar. Bu islomning siyosiylashuvi kuchayishiga va "islom xalifaligini tiklash" g'oyalarining keng yoyilishiga olib keldi. Ma'lumki, "Ahli Sunna val-Jamoa" e'tiqodiga ko'ra, islom arkonlari beshta: imon, namoz, ro'za, zakot va haj. Soxta salafiylik esa, "jihod –oltinchi arkon va jihod qilish har bir musulmon uchun farzi ayndir", degan g'oyani ilgari suradi. Jihodning avvalo va asosan qurolli kurash sifatida talqin qilinishi diniy ekstremizm va terrorizmning yangicha shakl va mazmun kasb etishiga olib keldi²⁶. Ularning iddaolaricha payg'ambar qabrini ziyorat qilish nojoiz amal hisoblanadi bunga islom shariatida bir qator raddiyalar berilgan. Jumladan "Payg'ambarimiz alayhissalomning qabrlarini ziyorat qilish mashru ekanligiga "Niso" surasining quydagi oyati dalil bo'ladi:

²⁵ Soxta salafiylikning sayoz sabog'i: diniy – ma'rifiy / A.Zayriyev, E.Qudratulloh – Toshkent.: "Shamsuddinxon Boboxonov" NMIU, 2022. B.42

²⁶ Islom va aqida parast oqimlar / A.Tulepov – Toshkent.: "Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013. B. 189



“...Agar o‘zlariga o‘zlari zulm qilgan chog‘larida huzuringa kelib, Allohga istig‘for aytganlarida va Payg‘ambar ham ular uchun istig‘for aytganida edi, albatta, Alloh tavbalarini qabul etuvchi va raxmli zot ekanini topgan bo‘lar edilar”. (64-oyat)

Nabiiy sollollohu alayhi vasallaning qabrlarini ziyorat qilishga taalluqli hadislar:

أَنَّ عَلِيَّ حَقًّا كَانَ زِيَارَتِي إِلَّا حَاجَةً تَعْمَلُهُ لَا زَائِرًا جَاءَنِي مَنْ سَلَّمَ وَ عَلَيْهِ اللَّهُ صَلَّى اللَّهُ رَسُوْلُ قَالَ قَالَ عُمَرُ ابْنُ عَن
الْقِيَامَةِ يَوْمَ شَفِيْعًا أَكُوْنَ

Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: U zot aytdi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Kimki mening ziyoratimga kelsa, uni mening ziyoratimdan boshqa biror hojati bo‘lmasa, qiyomat kuni menga uni shafobat qilish haq bo‘ladi”

عَنْ ابْنِ عُمَرَ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: مَنْ زَارَ قَبْرِي وَجَبَّتْ لَهُ شِفَاعَتِي

“Kim meni ziyorat qilsa, unga shafobatim vojib bo‘ladi”. (Imom Doraqutniy rivoyati).

سَلَّمَ وَ عَلَيْهِ اللَّهُ صَلَّى اللَّهُ رَسُوْلُ قَالَ قَالَ عُمَرُ ابْنُ عَن

حَيَاتِي فِي زَارَتِي فَكَأَنَّهَا مَوْتِي بَعْدَ زَارَتِي مَنْ

Hotib roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. U zot aytdi: Nabiiy sollallohu alayhi vasallam: “Kimki meni vafotimdan keyin ziyorat qilsa, go‘yo tirikligimda ziyorat qilgandek bo‘ladi” dedilar. (Imom Doraqutniy rivoyati)”²⁷. Soxta salafiylarning da‘volari qay darajada sayozligi ularning hadis va oyatlar mazmuniga ko‘r-ko‘rona ergashib chiqargan hukmlari musulmon ummatining birligiga anchagina ziyon yetkazdi.

III. RADIKALIZMNING MOLIVAVIY VA GEOSIYOSIY ASOSLARI

Bu kabi fatvolar natijasida musulmonlarning ichida o‘zaro ziddiyatlar paydo bo‘ldi musulmon bosha bir musulmonga gumon va Shubha bilan qaraydigan bo‘lib qoldi. Va musulmon jamiyatlar arziyas masalalar atrofida o‘ralashib ilmiy salohiyatda nomusulmon mamlakatlardan ortda qolib ketdi. Bu kabi oqimlar, yo‘nalishlar va firqalar esa ba‘zi siyosiy kuchlarning quroli vazifasini bajarmoqda. Ekstramistik tashkilotlarning faoliyati va daromad mabalarini o‘rganuchi xalqaro tashkilotlarning bergan xulosalariga ko‘ra soxta salafiylar singari radikal toifalarni moliyaviy tomonlama ta‘minotlari noqonuniy neft, gaz, qurol va odam savdosi hamda xalqaro hayriya jamg‘armalari, zakotlar va shunga o‘xshash pul chayqovchi tashkilotlardan iborat. Bu haqda “FATF (Financial Action Task Force) habar bergan. Bu tashkilot dunyo bo‘ylab pul yuvish va terorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashadi. Ya‘ni FATF o‘zining hisobotlarida radikal guruhlar qanday qilib “zakot” yoki “xayriya” niqobi ostida xalqaro bank tizimlaridan foydalanishini batafsil yoritadi”²⁸. Ammo bu hali hammasi emas chunki bu borada shaxsiy jurnalistik surishtiruv va ilmiy izlanishlar ham mavjud. Chunki jurnalist va olimlar ko‘pincha davlatlar va radikal toifalar orasidagi “ko‘rinmas iplarni” ochib tashlaydi. Quyida eng mashxur va nufuzli shaxsiy izlanishlar ro‘yxati keltiriladi.

Loretta Napoleoni – “Terror Incorporated” (Terror Korporatsiyasi): Italiyalik jurnalist Napoleoni radikal guruhlarining iqtisodiy tizimini o‘rgangan. U “terorizm iqtisodiyoti” tushunchasini olib kirgan. Uning surishtiruviga ko‘ra radikal guruhlar global

²⁷ Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi / Shayx N. Xoliqnazar – Toshkent.: “Matbaachi” nashriyoti, 2024. B.198

²⁸ Financial Action Task Force (FATF). Terrorist Financing. Available at: <https://www.fatf-gafi.org/en/topics/terrorist-financing.html> (Accessed: 22 March 2026).



iqtisodiyotning bir qismi bo'lib, yillik aylanmasi milliardlab dollorni tashkil etuvchi "parralel dunyo" yaratgan.

Seymour Hersh – "The red line and the rat line" (Qizil chiziq va kalamush yo'li): "Hersh AQSH Markaziy razverdka boshqarmasi (CIA) va boshqa davlatlar maxfiy xizmatlarining Suriyadagi radikal guruhlarini qurol bilan ta'minlashdagi bilvosita ishtirokini fosh qilgan"²⁹.

WikiLeaks va Edward Snowden tomonidan sizdirilgan hujjatlar zamonaviy tarixdagi eng yirik maxfiy ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Ushbu hujjatlar radikal guruhlar, xususan, soxta salafiy yo'nalishidagi tashkilotlarning qanday paydo bo'lishi va ularning ortida qaysi davlatlarning manfaatlari turganini fosh qilgan. "WikiLeaks 2010-yilda AQSh Davlat departamentining 250 mingdan ortiq diplomatik xatlarini e'lon qildi. Ushbu hujjatlar radikal guruhlarining moliyaviy manbalari haqida quyidagilarni ochib berdi: Xayriya fondlari va "Zakot" niqobi: Hujjatlarda Yaqin Sharqdagi ayrim boy davlatlardagi xususiy donorlar Al-Qoida, va boshqa salafiy guruhlarini muntazam moliyalashtirib kelgani aytiladi. Eng qiziq tomoni, diplomatik xatlarda bu davlatlarning hukumatlari ushbu pul oqimlarini to'xtatishga yetarlicha harakat qilmayotgani tanqid qilingan. "Kofirlarga qarshi" kurash emas, balki "Siyosiy bosim" Hujjatlar shuni ko'rsatadiki, ayrim davlatlar radikal guruhlardan o'zlarining mintaqaviy raqiblarini (masalan, Eron yoki Suriyani) zaiflashtirish uchun "instrument" sifatida foydalangan"³⁰.

2013-yilda Edward Snowden AQSh Milliy xavfsizlik agentligining (NSA) maxfiy dasturlarini fosh qildi. Bu hujjatlar radikalizm mavzusiga boshqa tomondan yondashadi:

"Snowden hujjatlari shuni ko'rsatdiki, maxfiy xizmatlar radikal guruhlarining ichiga kirib borish va ularni nazorat qilish uchun maxsus dasturlardan foydalangan. Ijtimoiy muhandislik: Ba'zi tahlilchilar Snowden sizdirgan ma'lumotlarga tayanib, radikal guruhlarining internetdagi tashviqot usullari ba'zan maxfiy xizmatlar tomonidan "kuzatilgan" va hattoki ayrim hollarda ularning harakatlari ma'lum bir siyosiy maqsadlarga (masalan, yangi harbiy qonunlarni qabul qilishga asos yaratish uchun) xizmat qilishi uchun yo'naltirilgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi"³¹. Xalqaro va shaxsiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki radikal toifalar va oqimlar siyosiy kuchlar qo'lidagi qo'g'irchoqlar bo'lib, ular musulmon jamiyatlarini parokanda qilish, tinchlik va osoyishtaligiga ziyon yetkazishdan boshqa ishga yaramaydigan islom va musulmonlarni yomon otliq qilayotgan siyosiy tuzulmalardir. Bu kabi radikal toifalar bugungi kunda o'z faoliyatlarini ijtimoiy tarmoqlar; Instagram, Facebook, YouTube va telegram orqali faol olib bormoqdalar. Ular o'zlariga ergashgan kishilar yordamida masofadan turib ma'lum hududlarda odamlarni oyoqqa turg'izish, olomonni qo'zg'otish, odamlarni mavjud hukumat va siyosatga qarshi qarshi qo'yishni amalga oshirishmoqda.

IV. XULOSA: O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY O'RNI VA XAVFSIZLIK

²⁹ Seymour M. Hersh. The Red Line and the Rat Line. London Review of Books, 2014. Available at: <https://www.lrb.co.uk/the-paper/v36/n08/seymour-m.-hersh/the-red-line-and-the-rat-line> (Accessed: 22 March 2026).

³⁰ WikiLeaks. Diplomatic Cables Database. Available at: <https://wikileaks.org/plusd/> (Accessed: 22 March 2026).

³¹ Edward Snowden. Documents and Releases. Available at: <https://edwardsnowden.com/documents/> (Accessed: 22 March 2026).



Mavjud siyosiy jarayonda O'zbekiston juda muhim geosiyosiy ahamiyat kasb etgani uchun yuqorida zikr etilgan propagandalar bu hududlarda ham davlat to'ntarishiga harakat, islomiy davlat qurish vajlari kabi va hokazo vajlar bilan bir necha bor O'zbekiston suverinitetiga putur yetkazmoqchi bo'lgan kuchlarni bartaraf qilib kelindi. Bugungi o'ta murakkab bo'lgan siyosiy davrda esa O'zbekistonning tutgan pazitsiyasi mukammal siyosiy tahlil va kuchli iroda mahsulidir. Mamlakatning amalga oshirayotgan siyosiy islohotlari nafaqat mintaqada balki butun dunyoda eng to'g'ri va mukammal siyosiy yo'l ekanini e'tirof etilmoqda. O'zbekiston ko'p millatli va turli madaniyatlar va dinlar vakillarini o'z bag'rida jamlagan zamin va bu hududda etnik, diniy va madaniy mojarolar chiqarish bilan butun Markaziy Osiyo mintaqasining tinchligi va osoyishtaligiga jiddiy ziyon yetkazish mumkin. Sababi O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlarining yuragi, markazida joylashgani uchun bu yerda nazoratni qo'lga olish atrofidagi beshta qardosh respublikalarga ham bevosita ta'sir o'tkaza olish imkonini beradi, shuning uchun mamlakatda ichidagi har qanday radikal qarashlar va toifalarga keskin choralar ko'rish va ularga qarshi kurashish nafaqat O'zbekiston balki mintaqada mavjud boshqa davlatlar xavfsizligi va manfaatlarini ham himoya qiladi. Ushbu nozik siyosiy vaziyatda eng katta kuch – millatlar, madaniyatlar va dinlar orasida muvozzatan saqlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayx M. Muhammad Yusuf. Hadis va hayot 19-juz, Olamlarga raxmat Payg'ambar. – Toshkent.: "hilol nashr", 2022. – 584 b.
2. A. Abdullayev, N. Hakimov, Sh Jo'rayev, J Karimov. Ilmdan boshqa najot yo'q – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.– 156 b.
3. O'. Hasanbayev. Dini-ma'rifiy va ijtimoiy-ma'naviy soha targ'ibotchilari uchun ayrim atama va tushunchalarning izohli lug'ati – Toshkent : "Shamsuddinxon Boboxonov" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 608 b.
4. A.Zayriyev, E.Qudratulloh. Soxta salafiylarning sayoz sabog'i: diniy – ma'rifiy – Toshkent.: "Shamsuddinxon Boboxonov" NMIU, 2022. 300 b.
5. A.Tulepov. Islom va aqida parast oqimlar – Toshkent.: "Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013. 319 b.
6. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi / Shayx N. Xoliqnazar – Toshkent.: "Matbaachi" nashriyoti, 2024. 407 b.
7. Financial Action Task Force (FATF). Terrorist Financing. Available at: <https://www.fatf-gafi.org/en/topics/terrorist-financing.html> (Accessed: 22 March 2026).
8. Seymour M. Hersh. The Red Line and the Rat Line. London Review of Books, 2014. Available at: <https://www.lrb.co.uk/the-paper/v36/n08/seymour-m.-hersh/the-red-line-and-the-rat-line> (Accessed: 22 March 2026).
9. WikiLeaks. Diplomatic Cables Database. Available at: <https://wikileaks.org/plusd/> (Accessed: 22 March 2026).



10. Edward Snowden. Documents and Releases. Available at:
<https://edwardsnowden.com/documents/> (Accessed: 22 March 2026).